




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

SHONAZAR SHOABDURAHMONOV – LINGVOFOLKLORISTIKA
ASOSCHILARIDAN

SHONAZAR SHOABDURAHMONOV – ONE OF THE FOUNDERS OF LINGUISTIC
FOLKLORISTICS

Umarjon QODIROV,
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SJTX4501

Annotation. *Shonazar Shoabdurahmonov was a prominent scholar who made significant contributions to the study of the language of folklore works. This article analyzes his scholarly research devoted to the language of the epic Ravshan, which occupies an important place in the development of Uzbek linguistics. Particular attention is paid to the scholar's contribution to the investigation of the phonetic and lexical features of the epic. The study examines artistic phonetic elements, sound repetitions, rhyme patterns, and expressive devices used in Ravshan, illustrating them with relevant examples. In addition, the article highlights Ergash Jumanbulbul o'g'li's mastery in employing the rich resources of the folk language and reveals the factors that contribute to the artistic expressiveness and aesthetic impact of the epic.*

Key words: *folklore linguistics, Ergash Jumanbulbul o'g'li, research, publication, sound repetition, rhyme system, expressive devices.*

Sh. Shoabdurahmonov aspiranturada o'qib yurganida atoqli xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul o'g'li repertuaridagi "Ravshan" dostonining tilini izchil o'rgandi va 1949-yilda "Ravshan" dostoni tilining badiiy xususiyatlari" mavzusidagi monografiyasini yozib tamomladi va uni filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun muvaffaqiyatli himoya qildi. Alohida qayd etish kerakki, yosh tilshunosning bu ilmiy asari folklor asarlari tilining badiiy xususiyatlarini chuqur ilmiy asosda o'rganishga bag'ishlangan monografik plandagi birinchi ilmiy ish edi. U "Ravshan" dostonining til xususiyatlarini o'rganish asosida Ergash Jumanbulbul o'g'lining xalq tili leksik boyligidan foydalanishdagi o'ziga xos badiiy mahoratini ochib berdi. Olimning "Ravshan" dostonida badiiy fonetika elementlari" [Шоабдурахмонов, 1967], "Ergash Jumanbulbul dostonlarida ifoda va tasviriylilik" [Шоабдурахмонов, 1970], "Ravshan" dostonining tili haqida" [Шоабдурахмонов, 1971], "Xalq donoligi" [Шоабдурахмонов, 1978] kabi maqolalarida o'zbek folklori tilining poetik tabiatiga doir muhim nazariy qarashlar ifoda etilgan.

Sh. Shoabdurahmonovning 1967-yilda yozilgan "Ravshan" dostonida badiiy fonetika elementlari" nomli maqolasida Ergash Jumanbulbul o'g'li og'zidan shoir mansub bo'lgan Qo'rg'on (Jo'sh) shevasi xususiyatlarini saqlagan holda yozib olingan Go'ro'g'li turkumiga kiruvchi "Ravshan" dostonining fonetik jihatlari tahlil qilingan. Olim bu maqolasida mazkur dostonni ham lingvistik, ham adabiyotshunoslik aspektidan turib tadqiq qiladi. Sh. Shoabdurahmonov dastlab dostonni she'riyat nazariyasi bo'yicha tahlil qilib, undagi she'rlarning 7, 8, 11 hijoli barmoq vaznida ekanligini, turoqlarining o'zgarishi bilan she'rlarning ohangi rang-baranglashganini aytib o'tadi. Bu maqolasida olim o'zbek adabiyotshunosligida birinchi bo'lib badiiy asarda tovushning ahamiyati va o'rni haqida fikr yuritadi. Tovushlarning obraz ruhiyatini ochishda muhim vosita bo'la olishini ko'rsatib berdi. Sh. Shoabdurahmonov yozma adabiyotda shoirlar she'r uchun holatga, vaziyatga mos emotsional tovush va tovush birikmalarini tanlashlari, tovushning akustik xususiyatlari she'rning ohangdorligini oshirishda juda ahamiyatli o'rin tutishini ta'kidlaydi. Olim dostonda ayrim tovushlar vositasida yaratilgan

emotsional holatlarga o'rinli misollar keltiradi. Masalan, Hasanxonning qahramonligini tasvirlar ekan, Ergash Jumanbulbuldan quyidagi misralarni keltiradi:

Hasanxonning bir oti

Qandi kechganday bo'ldu...

Bir nayzaga Hasanxon

Juzdu chachqanday bo'ldu...

G'irko 'ktung shu kun tuyog'i

Kalla janchganday bo'ldu [Шоабдурахмонов, 1967:24-25].

Bu she'riy parchada bir necha undosh va unli tovushlar vositasida she'rdagi ohangdorlik, emotsionallik oshganligini Sh. Shoabdurahmonov sinchiklab tadqiq qilgan. Birinchidan, turli so'zlarda "j" va "ch" undoshlari almashib kelib, she'rga jangovar ruh, shijoatli kayfiyat baxsh etmoqda. Ikkinchidan, o', u tovushlari qayta-qayta takrorlanishi, akustik xarakteri bilan jang suroni manzarasini tasvirlashda qo'l kelgan.

Olim dostonning fonetik xususiyatlarini ochar ekan, she'riy til uchun tovush va holat o'rtasida munosabat bo'lishi asarning ta'sir kuchini yana-da oshirishini aytib o'tadi. She'riy asarda tovush orqali paydo bo'lgan his uning ma'nosi tufayli hosil bo'ladigan hayajonga muvofiq kelishi ham muhim omillardan biridir. She'ning mazmun-mundariyasi va uning tovushlar tarkibi o'zaro uyg'un kelishi she'riy asarning eng asosiy unsurlaridan ekanligini qayd qiladi.

Tovushlar vositasida kuchli emotsiya hosil qilish Ergash shoirning boshqa dostonlarida, xususan, "Kuntug'mish" dostonida ham ko'p uchrashini ta'kidlar ekan, olim shu dostonidan yori va bolalari karvonlar tomonidan zo'rlab olib ketilgandagi bo'zlashini misol keltiradi:

Mart to'ramning o'lganiga yig'layman,

Bolam yetim qolganiga yig'layman.

Qodir mavlon, dargohingga ne yozdim,

Muncha alam solganiga yig'layman.

Bu keltirilgan misolda ko'p takrorlangan m va n tovushlari o'z akustik xarakteri bilan ingrash, zorlanish ohanglarini hosil qiladi. Xuddi shunday holat Ergash shoirning o'z ukasi Abduxalilga atab yozgan yo'qlov-marsiyasida ham mavjud:

Qo'ldan uchdi bo'z tarlonim,

Eshitinglar qadrdonim,

Jolg'iz inim suyanganim

Shunqorimnan judo bo'ldim.

Bu she'riy parchada ham ketma-ket takrorlangan m va n tovushlari ingrash, bo'zlash emotsiyalarini hosil qilishga va kuchaytirishga yordam bergan.

Sh. Shoabdurahmonov dostonning badiiy fonetika unsurlarini tekshirar ekan, yana bir jihatga – asardagi tovushlar takroriga ham alohida to'xtaladi. Bunday takrorda undoshlar o'z fonetik xususiyatini saqlaydi yoki o'zlarining akustik juftiga⁶ mos ravishda boshqa tovushga (jarangli undosh o'zining jarangsiz juftiga yoki aksincha) aylanadi. Olim, shuningdek, "Ravshan" dostonida kelgan takrorlanuvchi tovushlarni bir takrorli va ko'p takrorli deb ikki guruhga bo'ladi. Bir takrorli tovushlar tizimiga "navboz juvana bozor" jumlasini misol qilib, ko'p takrorli tovush tizimiga "chaqchaqqina chaqqon qizlar" jumlasini misol qilib keltiradi. Matnda quyidagicha keladi:

O'turup turushgan qizlar,

Uruship yulushgan qizlar,

Qiqirlap kulushgan qizlar,

Chaqchaqqina chaqqon qizlar

⁶ Sh. Shoabdurahmonov tovushlarni quyidagi akustik juftlarga bo'ladi: b(p), v(f), d(t), z(s), j(sh), r(l), g(k), x(h), ch(dj).

So'z aytarman mayin-mayin [Шоабдурахмонов, 1967:29].

Dostonning poetik nutqida so'z takrorlarining o'rinli joylashtirilishigina asar tili ohangdorligini oshirishga xizmat qilganini olim ta'kidlab o'tadi. "Ravshan" dostonida tovush takrorlari misra yoki baytning boshi va so'ngida kelishiga ko'ra quyidagi to'rt holatda bo'lishini Sh. Shoabdurahmonov ko'rsatib o'tadi:

1. Halqa. Bunda takrorlanuvchi tovushlarning asosi misra boshida, takror esa shu misraning yoki undan keyingi misraning oxirida keladi.
2. Tirkov. Bunda takrorlanuvchi tovushlarning asosi shu misra oxirida, takror esa keyingi misraning boshida keladi.
3. Boshlov. Bunda takrorlanuvchi tovushlarning asosi misra boshida, takror esa keyingi misra boshida keladi.
4. Tugov. Bunda takrorlanuvchi tovushlarning asosi misra oxirida, takror esa keyingi misraning oxirida keladi [Шоабдурахмонов, 1967:30].

Sh. Shoabdurahmonov ushbu ilmiy maqolasida Ravshan dostonining fonetik xususiyatlarini tadqiq qilish orqali ushbu asar ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan turli fonetik hodisalarni izchil ilmiy uslubda yoritib bergan.

Folklor asarlarining til xususiyatlarini tadqiq qilish Sh. Shoabdurahmonov ilmiy faoliyatining yorqin qirralaridan biridir. U "Ravshan" dostonining tili ustidagi izlanishlarini davom ettirib, 1971-yilda "Ravshan dostonining tili haqida" nomli yirik maqolasini e'lon qildi [Шоабдурахмонов, 1971:146-172].

Maqolada olim Ergash Jumanbulbul repertuaridan mustaqil o'rin olgan "Ravshan" dostoni tili va undagi tasviriy vositalar tadqiq etilgan. Maqolada Sh. Shoabdurahmonov mazkur dostonning ham lingvistik xususiyatlarini, ham badiiy jihatlarini juda sinchkovlik bilan tahlil qiladiki, biz maqolani o'qib, olimning adabiyotshunoslik masalalarini ham nihoyatda teran anglaganini bilib olamiz.

Olim dastlab dostonning vazniga, qofiya va turoqlariga e'tibor qaratadi. Asarning ichida o'rni-o'rni bilan hijo va turoqlarning o'zgarib turishi voqealar oqimiga, qahramonning ruhiy holatiga mos ravishda ro'y berganini olim ta'kidlab o'tadi. Dostonning qofiya tizimi ham tahlil qilinadi. Unda qofiyalarning aksariyati artikulyatsiya o'rni va usuliga ko'ra bir-biriga yaqin tovushlardan tarkib topganini misollar yordamida ko'rsatib beradi. Sh. Shoabdurahmonov dostonda uchraydigan, adabiyotshunoslikda "tajnis asosiga quriladigan" deb nomlangan qofiya turiga ham to'xtalib, uni "omonimik qofiya" deb tilshunoslik aspektidan turib nomlab, quyidagi misolni keltiradi:

Ostingda o'ynaydi, tulpordir oting,

Jiyronqush ostingda, Ravshandir oting [Шоабдурахмонов, 1971:148].

Olim "Ravshan" dostonining ham nasr, ham nazmda ijod qilinganini ta'kidlar ekan, nasriy qismida ham yuksak badiiy mahorat bilan qofiyalangan parchalar (sajlar) uchrashini, bunday o'rinlar asarga yuksak poetik ruh, kuchli emotsionallik bag'ishlaganini ta'kidlab, o'rinli misollar keltiradi:

"Oqqiz shunday qiz edi: Oti Oqqiz edi, Zulxumorga naq qiz edi. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli choq qiz, o'ynagani bog' qiz, nasya emas, naq qiz, uyquchi emas, soq qiz, eri yo'q, o'zi toq qiz, buvishiga noq qiz, ko'p kalondimoq qiz, yaxshi, tekis bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q ahmoq qiz, qora ko'z, bodom qovoq qiz, sinli-siyoq qiz, o'zi semiz, turishi yog' qiz, o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bulayroq qiz, o'zi anqov ulayroq qiz..." [Шоабдурахмонов, 1971:149]

Sh. Shoabdurahmonov "Ravshan" dostonining ilmiy tadqiqini tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan chorralardan turib amalga oshirgan. Shuning uchun ushbu tadqiqot har ikki soha mutaxassislari uchun ham qiziqarli va ahamiyatlidir.

Olim tahlil jarayonida dostonida qo'llangan bir necha tasviriy vositalarni tahlil qiladi. Bu tasviriy vositalar quyidagilar:

1. Sifatlash.
2. O'xshatish.
3. Metafora.
4. Metonimiya.
5. Kinoya.
6. Mubolag'a.
7. Sintaktik tasviriy vositalar.
8. Fonetik tasviriy vositalar.

Dostonchilar orasida obrazli so'z va iboralarni ishlatishda Ergash Jumanbulbul o'g'li alohida o'rinda turishini ta'kidlar ekan, Sh. Shoabdurahmonov uning badiiy mahoratini turli rakurslardan turib tadqiq qiladi. Dostonida eng ko'p ishlatilgan obrazli ifodalardan biri sifatlashdir. Asardagi sifatlashlar qurilishi jihatidan ikki xil: yakka va murakkab sifatlashlardan iborat ekanligini aytadi. Yakka sifatlashlar asarda ifodalangan voqea, narsa yoki shaxsning birgina o'ziga xos belgisini ifodalasa (masalan, suyuldim *qora* ko'zidan, tirildim *shirin* so'zidan), murakkab sifatlashda voqea yo narsaning qator yoki bir necha belgilari zikr qilinadi (masalan, *bag'ri tortiq sari* yo'ylar tortildi maydon ichinda).

O'xshatish ham "Ravshan" dostonida uchraydigan badiiy vositalardan biri bo'lib, ularda qahramonlarni, ularning otini, yorini kuchda baquvvat, chopishda ildam, husnda go'zal hisoblanadigan mavjudotlarga chog'ishtiriladi. Dostondagi o'xshatishlar *-day*, *-dayin* qo'shimchalari bilan shakllanadi:

Oydayin ochilgan mening baxtimdir...

Simday bo'p suyakka botib boradi.

Umuman, Sh. Shoabdurahmonov dialektologiya va folklor yo'nalishlarining bir-biriga yaqin, yondosh sohalar ekanligini o'zining ilmiy faoliyati misolida ko'rsatib bergan olimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov U. Famous dialectology scientist // American Journal of Interdisciplinary Research and Development, ISSN: 2771-8948 Volume 36 ISSUE 1/2025, SJIF: 9,6. – B. 176-180.
<https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/1457>
2. Qodirov U. The scientific activities of Shonazar Shoabdurahmonov // Bulletin of Pedagogics of New Uzbekistan, ISSN: 2181-4503 Volume 3 ISSUE 2/2025, SJIF: 5,1. – B. 94-99.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14870620>
3. Шоабдурахмонов Ш. Эргаш Жуманбулбул дostonларида ифода ва тасвирийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970. – № 5. – Б. 43-50.
4. Шоабдурахмонов Ш. "Равшан" дostonида бadiий фонетика элементлари / Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент, 1967. – Б. 23-30.
5. Шоабдурахмонов Ш. "Равшан" дostonининг тили ҳақида / Эргаш шоир ва унинг дostonчиликлдаги ўрни. Тадқиқотлар. 2-китоб. – Тошкент, 1971. – Б. 146-172.
6. Шоабдурахмонов Ш. Халқ донолиги / Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, 1978. – Б. 3-5.
7. https://t.me/shoabdurahmonov_ilmiy_ishtar